


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- noyabr oylarida)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

■ O‘rmon xo‘jaligi

■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,6 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



307

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

5 090

Ishlab chiqarish sanoati

32

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

74

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 5 503 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,6 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 18,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 7,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 % ni tashkil etib (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 37,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) oshdi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1** foizga kamaygan




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




2,0 foizga kamaygan



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,7 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



75,0 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 448 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga kamaygan. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni kamayishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 3,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 67,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 25,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 0,9 % ga kamaygan (jami qurilishdagi ulushi 22,4 %) tashkil etdi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 12 159 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,0 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 21,4 % ga (jami savdodagi ulushi 72,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 21,6 % ga (jami savdodagi ulushi 19,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 28,6 % ga (jami savdodagi ulushi 8,1 %) oshdi.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

806



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

26



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

18



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



184

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 806

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 990 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishi-ning asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 12,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,8 %), yashash bo'yicha xizmatlar 57,3 % ga ko'paygan (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,2 %) o'sishi ko'zatilmoqda.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,3** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




15,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




20,2 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




22,6 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **7,5** foizga oshdi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




14,1 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




34,4 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar





Jami faoliyat ko'rsatayotgan tashish va saqlash korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,0 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




9,9 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,5 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





Xususiy korxonalar





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 5 881 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 404 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 232 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1091 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 795 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 680 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 20 377 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 176 taga yoki 18,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 480 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 889 taga yoki 17,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 841 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 753 taga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 251 tani tashkil etib, ulardan 243 tasi yoki 96,8 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 9 taga yoki 3,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida viloyatimizda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

19

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|-----------|------------|------------|------------|------------|
| Jami | 78 | 189 | 218 | 234 | 243 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 8 | 28 | 40 | 47 | 53 |
| Sanoat | 47 | 101 | 108 | 109 | 105 |
| Qurilish | 3 | 10 | 12 | 12 | 14 |
| Savdo | 11 | 25 | 32 | 38 | 44 |
| Tashish va saqlash | 2 | 4 | 5 | 4 | 4 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3 | 10 | 8 | 9 | 7 |
| Axborot va aloqa | 1 | 3 | 1 | 1 | 1 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | - | 3 | 4 | 6 | 6 |
| Boshqa turlar | 3 | 5 | 8 | 8 | 9 |

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


| | Jami | shundan: | |
|-----------------------------|------------|-------------------|-------------------|
| | | Qo'shma korxonona | Xorijiy korxonona |
| Qashqadaryo viloyati | 243 | 159 | 84 |
| G'uzor | 12 | 9 | 3 |
| Dehqonobod | 17 | 12 | 5 |
| Qamashi | 14 | 10 | 4 |
| Qarshi | 16 | 10 | 6 |
| Koson | 24 | 14 | 10 |
| Kitob | 19 | 12 | 7 |
| Mirishkor | 8 | 4 | 4 |
| Muborak | 12 | 6 | 6 |
| Nishon | 17 | 13 | 4 |
| Kasbi | 7 | 2 | 5 |
| Ko'kdala | 5 | 4 | 1 |
| Chiroqchi | 9 | 7 | 2 |
| Shahrisabz | 5 | 3 | 2 |
| Yakkabog' | 18 | 10 | 8 |
| Qarshi sh. | 54 | 41 | 13 |
| Shahrisabz sh. | 6 | 2 | 4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 54 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 22,2 %), Koson 24 ta (9,9 %), Kitob 19 ta (7,8 %), Yakkabog' 18 ta (7,4 %), Nishon 17 ta (7,0 %), Dehqonobod 17 ta (7,0 %), Qarshi 16 ta (6,6 %) va Qamashi tumanlarida 14 ta (5,8 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

22




2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 43 643 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (18,9 %), Koson (7,9 %), Qarshi (7,2 %), Kitob (7,1 %), Yakkabog' (6,9 %), Qamashi (6,8 %), Chiroqchi (5,6 %), Shahrisabz shahri (5,4 %), G'uzor (5,4 %), Shahrisabz (4,8 %), Dehqonobod (4,7 %), Kasbi (4,6 %), Nishon (4,4 %), Mirishkor (4,1 %), Muborak (3,2 %) va Ko'kdala (3,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan 8 011 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Qarshi shahrida (14,6 %), Koson (7,9 %), Yakkabog' (7,0 %), Qamashi (6,9 %), G'uzor (6,7 %), Qarshi (6,4 %), Kitob (6,4 %), Shahrisabz (6,0 %), Shahrisabz shahri (5,7 %), Kasbi (5,7 %), Chiroqchi (5,5 %), Dehqonobod (5,3 %), Mirishkor (5,0 %), Nishon (4,1 %), Ko'kdala (3,7 %) va Muborak (3,1 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 19 480 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahrida (22,5 %), Koson (10,6 %), Qamashi (8,4 %), Yakkabog' (7,8 %), Qarshi (6,2 %), Kasbi (5,7 %), Chiroqchi (5,6 %), Mirishkor (5,6 %), Nishon (4,8 %), Kitob (4,8 %), G'uzor (4,1 %), Muborak (3,8 %), Shahrisabz shahri (3,7 %), Shahrisabz (2,8 %), Ko'kdala (2,1 %) va Dehqonobod (1,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar- noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan 1 795 ta oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi G'uzor (18,1 %), Koson (13,0 %), Qarshi (11,8 %), Shahrisabz (11,5 %), Qarshi shahri (9,7 %), Chiroqchi (8,7 %), Qamashi (6,1 %), Ko'kdala (5,5 %), Kitob (4,0 %), Dehqonobod (2,8 %), Muborak (2,4 %), Nishon (1,8 %), Shahrisabz shahri (1,6 %), Mirishkor (1,5 %), Yakkabog' (1,1 %) va Kasbi (0,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar- noyabr oylarida, birlikda)




Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 221-17-93